

## **“O‘zmilliybank” AJ da xalqaro ISO 37001:2016 “Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment” tizimi standartlarining joriy etilishi – bugungi kunning dolzarb vazifasi**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, muhtaram Sh.M.Mirziyoevning tashabbuslari bilan mamlakatimizda davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan bank sohasida korrupsiyaga qarshi kurashish, uni keltirib chiqarayotgan sabab va shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish borasida tizimli choralar ko‘rilmog‘da.

O‘zbekistonda ilk bor korrupsiyaviy xavflarni aniqlash va tizimli tahlil qilish, ularni keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf qilish uchun mas‘ul bo‘lgan alohida organ - Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi. Vazirlik va idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida ISO 37001:2016 xalqaro standartiga asosan “Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment” tizimi joriy etilib, ushbu yo‘nalish bo‘yicha ichki idoraviy hujjatlar qabul qilindi.

Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyatida ochiqlik, oshkoralik va shaffoflikni ta‘minlash hamda mansabdor shaxslarning aholi oldidagi hisobdorligini yo‘lga qo‘yish orqali davlat boshqaruvida samarali va ta‘sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun zarur sharoitlar yaratildi.

Mamlakatda burokratik to‘siqlarni bartaraf etish va “yashirin iqtisodiyot”ni qisqartirish choralari ko‘rilmog‘da hamda “Korrupsiyasiz soha” loyihalari amalga oshirilmoqda.

Ta‘kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish Milliy kengashining 2021 yil 29 martidagi 3-sonli yig‘ilishida “O‘zbekiston Respublikasi “Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki” AJ tizimida “Korrupsiyasiz soha” loyihasini amalga oshirish bo‘yicha qaror qabul qilingan bo‘lib, Bankimizda 2021-2024 yillarda keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Bajarilgan ishlarimiz yakuni sifatida Bankimizda Komplayens-nazorat tizimini joriy etish darajasi va uning samaradorligi yuzasidan xalqaro tashkilot tomonidan audit o‘tkazish va tegishli sertifikat olish bo‘ladi.

Xo‘sh, ISO 37001:2016 o‘zi nima?

ISO 37001:2016 – bu tashkilotda korrupsiyaga qarshi kurashning samarali tizimini yaratishning xalqaro usullarini o‘zida jamlagan, korrupsiyaga qarshi mukammal boshqaruv tizimini yo‘lga qo‘yishga xizmat qiladigan xalqaro standartdir.

ISO 37001:2016 korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimini ishlab chiqish, joriy etish, qo‘llab-quvvatlash, tahlil qilish va takomillashtirish uchun talablarni va rahbariy ko‘rsatmalarni belgilaydi.

Standart 44 ta mamlakatdan jalb qilingan 80 nafar mutaxassisdan maxsus shakllantirilgan ISO/PC 278 “Anti-bribery management systems” ishchi qo‘mitasi tomonidan ishlab chiqilgan.

ISO 37001:2016 tashkilot faoliyatida korrupsiya bilan bog‘liq yuzaga keladigan quyidagi holatlarga nisbatan amal qiladi:

- davlat, xususiy va notijorat sektorlarida pora olish;
- tashkilotlar tomonidan pora olish;

- tashkilot nomidan yoki uning foydasiga ishlaydigan xodimlar tomonidan pora olish;
- tashkilot nomidan yoki uning foydasiga ish olib boradigan hamkorlari tomonidan pora olish;
- tashkilotga pora berish;
- tashkilotning faoliyati bilan bog‘liq tashkilot xodimlarga pora berish;
- tashkilotning faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan hamkorlariga pora berish;
- to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki kimdir orqali (masalan, uchinchi shaxs tomonidan taqdim etilgan yoki qabul qilingan pora) pora berish kabi holatlar.

ISO 37001:2016 har qanday yurisdiksiyada va har qanday sektor hamda tarmoqda (davlat, xususiy yoki notijorat tashkilot va hokazo) korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimini shakllantirishga qaratilgan.

Ushbu standart Malayziya hukumati tomonidan joriy qilingan bo‘lib, ham davlat sektorida, ham xususiy sektorda ijobiy natija bergan. Xususan, Malayziyaning bir qator muhim xalqaro tadqiqotlar va indekslar bo‘yicha ko‘rsatkichlari yaxshilangan.

Shuningdek, Singapur va Xitoyda davlat sektorida, Indoneziya va Tailandda xususiy sektorda ISO 37001:2016 standartidan foydalaniladi.

Buyuk Britaniyada esa Birlashgan Qirollikning Akkreditatsiya Xizmati (Accreditation Service) akkreditatsiya sxemasini ishlab chiqish uchun ISO 37001:2016 boshlang‘ich dasturini amalga oshirgan.

Dunyoning eng yirik kompaniyalaridan bo‘lgan Microsoft ham ISO 37001:2016 standarti bo‘yicha sertifikatga ega.

Nima uchun tashkilotda ISO 37001:2016 ni joriy qilish muhim?

Sir emaski, yirik tashkilot rahbari tashkilotidagi har bir xodimni nazorat qila olmaydi. Buning uchun samarali tizim kerak.

ISO 37001:2016 tashkilotga u qaysi mamlakatda faoliyat ko‘rsatishidan qat‘iy nazar, korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimini ishlab chiqishda, joriy etishda, saqlashda va takomillashtirishda yordam beradi.

Ushbu standartga muvofiq boshqaruv tizimini joriy qilish tashkilot rahbariga har bir xodimning halolligi haqida xavotir bo‘lib yurmaslikka imkon beradi, chunki bu holat ushbu joriy etilgan tizim tomonidan nazorat qilinadi. Tizimni joriy etilishi natijasida tashkilot to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan jarayon zarur natijani beradigan mexanizm singari ishlaydi.

Ta‘kidlash lozimki, ISO 37001:2016 nafaqat korrupsiyaga qarshi tizimga nisbatan aniq talablarni belgilaydi, balki tashkilotning boshqaruv tizimiga talablarni joriy etish jarayonini sezilarli darajada soddalashtiradigan tizimni yaratish bo‘yicha rahbariy ko‘rsatmalar beradi.

Tizimni joriy etish:

- ma‘muriy tartib-taomillar, davlat xizmatlari va xaridlarini amalga oshirishda davlat organlarida korrupsiya faktlari to‘g‘risida ma‘lumot olishga;
- tashkilotning markaziy apparati va hududiy tuzilmalari kesimida korrupsiya holati va tendensiyalari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni to‘plash va tahlil qilishga;

- davlat idoralari, tarmoqlar, hududlar va korrupsiya turlari kesimida korrupsiya holati va tendensiyalari monitoringini amalga oshirishga;

- fuqarolarning, xodimlarning murojaatlari bo'yicha yagona tizim va ma'lumotlar bazasini yaratish, shuningdek davlat xizmatida korrupsiyaga qarshi o'qitish va halollik bo'yicha malakasini oshirishga xizmat qiladi.

ISO 37001:2016 bo'yicha sertifikat olish uchun korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimni ishlab chiqish va joriy etish, shuningdek, joriy qilingan tizimning standart talablariga muvofiqligini mustaqil audit o'tkazish orqali tasdiqlanadi.

ISO 37001:2016 tashkilotdan bir qator tadbirlarni amalga oshirishni talab qiladi. Xususan:

- korrupsiyaga qarshi siyosatni ishlab chiqish;
- korrupsiyaga qarshi tadbirlarning bajarilishini nazorat qilish uchun mas'ullarni tayinlash;
- xodimlarni o'qitish;
- korrupsiya xavflarini baholashni o'tkazish;
- moliyaviy va tijorat nazoratini olib borish, hisobotlar yuritish va boshqalar.

Standartga muvofiq, samarali korrupsiyaga qarshi siyosat uchun vakolatli va javobgarligi belgilangan korrupsiyaga qarshi kurashish xizmatini joriy etish zarur.

Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati yetarli resurslarga ega bo'lishi, tayinlangan shaxslari esa tegishli malaka, maqom, vakolatlarga va mustaqillikka ega bo'lishi kerak. Xizmat, zarurati bo'lgan taqdirda, korrupsiyaga oid yoki korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimi bilan bog'liq har qanday savol yoki muammoni eng yuqori darajada ko'rib chiqish uchun yuqori turuvchi rahbariyatga to'g'ridan-to'g'ri va tezkor kiritish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

Korrupsion xavf darajasi yuqori bo'lgan barcha lavozimlarga, shuningdek korrupsiyaga qarshi kurash xizmatining mutaxassislariga nisbatan tashkilot quyidagilarni o'z ichiga oladigan tartib-taomillarni joriy etishi kerak:

- ishga qabul qilishdan, boshqa lavozimga o'tkazish yoki yuqori lavozimga ko'tarishdan oldin har bir nomzodni kompleks tekshiruvdan o'tkazish, ularni ishga qabul qilish va boshqa lavozimga o'tkazishning asoslilikini tekshirish, ularning korrupsiyaga qarshi siyosat va boshqaruv tizimi talablariga muvofiqligiga ishonch hosil qilish;

- boshqa mehnatga xak to'lashni barcha turdagi rag'batlantiruvchi elementlarini (bonuslar, maqsadli ko'rsatkichlar va hokazo) qo'llashda korrupsiyaning oldini olish uchun yetarli himoya choralari ko'rilganiga ishonch hosil qilish maqsadida davriy tahlil qilib borish;

- xodimlar, yuqori rahbariyat va boshqaruv organi o'zlarining korrupsiyaga qarshi siyosatiga muvofiqligini tasdiqlash uchun vaqti vaqti bilan deklaratsiyani to'ldirib turadilar.

- shuningdek, ushbu standartga muvofiq bo'lish uchun tashkilot o'z xodimlarini yetarli darajada xabardor qilish va o'qitishni ta'minlashi kerak. Bunday o'qitish tizimi, zarur hollarda, korrupsiya xavfini baholash natijalarini

hisobga olgan holda quyidagi savollarni o‘z ichiga olishi lozim:

- tashkilotning korrupsiyaga qarshi siyosati, korrupsiyaga qarshi tartib-taomillar va boshqaruv tizimi, shuningdek xodimning ularga muvofiq bo‘lish majburiyati;
- korrupsiya xavflari va ulardan xodim va tashkilot uchun zararlar;
- xizmat vazifalarini bajarish bilan bog‘liq holda yuzaga kelishi mumkin korrupsiya holatlari va ularni aniqlash usulari;
- ta‘magirlik va pora taklif qilishga urinishlarni qanday aniqlash va o‘zini qanday tutish kerakligi;
- xodimlar qanday qilib poraxo‘rlikdan ogohlantirish va oldini olishga yordam berishi, shuningdek korrupsiyaning asosiy indikatorlarini aniqlab olishi mumkinligi;
- korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimining samaradorligiga qo‘shgan hissasi, shu jumladan korrupsiyaga qarshi ko‘rsatkichlarning yaxshilanishini
- va poraxo‘rlikda gumon qilinganlar to‘g‘risidagi xabar berganlarni rag‘batlantirilishi;
- korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimi talablarini bajarmaslikning asoratlari va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan oqibatlarini;
- mavjud har qanday gumonlar haqida qanday va kimga xabar berish mumkinligi;
- mavjud o‘qitish va boshqa resurslar haqida ma‘lumot.

Shuningdek, tashkilotda pora sifatida baholanishi mumkin bo‘lgan holatlarda sovg‘alar, minnatdorchilik ramzlari, xayr-ehson va shunga o‘xshash rag‘batlantirish turlarini taklif qilish, berish yoki qabul qilishning oldini olish uchun ishlab chiqilgan tartib-taomillar joriy qilinishi lozim.

Ta‘kidlash joizki, bugungi kunda “O‘zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki” AJ da joriy etilgan aksilkorrupsiya tizimning xalqaro ISO 37001:2016 “Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment” tizimi standartlari talablariga muvofiqligini mustaqil audit orqali tasdiqlash maqsadida audit o‘tkazuvchi tashkilotni tanlash va shartnoma tuzish bo‘yicha texnik topshiriq ishlab chiqildi va tegishli xizmatlar tomonidan ijro uchun qabul qilingan. Xalqaro audit o‘tkazish joriy yilning ikkinchi choragiga rejalashtirilgan.

Bankimizda ISO 37001:2016 standartini joriy etish “O‘zmilliybank” AJga nisbatan fuqarolarning, mijozlarimiz va hamkorlarimizning ishonchini orttirish, xodimlarning halolligini oshirish, huquqbuzarliklarni oldini olishni, faoliyatimizni shaffofligi va samaradorligini ta‘minlaydigan uchun juda samarali vosita bo‘lishi mumkin. Ushbu bilan biz korrupsiya holatlarining oldini olish, aniqlash va bartaraf qilish uchun zarur bo‘lgan barcha choralarni xalqaro standartlarga muvofiq amalga oshirayotganimizni namoyish qilishimiz mumkin.

**“O‘zmilliybank” AJ Boshqaruvi Raisi**  
**A.Q.Mirsoatov**